

TONG yulduzi

O'zbekiston Respublikasi bolalari va o'smirlari gazetasi

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqa boshlagan

2006-yil 1 - 7 - may N:18 (66559)

Muassislar:

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi,
O'zbekiston Respublikasi Xalq Ta'limi Vazirligi,
«KAMOLOT» Yoshlar Ijtimoiy Harakati,
«SOG'LOM AVLOD UCHUN» Hukumatga qarashli bo'lgan xalqaro xayriya jamg'armasi.



Bolalar ijodkori bo'lganim uchunmi, ular davrasida ko'proq bo'lishga intilaman. Oralaridan yozilajak hikoyalarimga qahramonlar tanlab olaman.

Yaqinda tumanimizdagi 45-umumta'lim maktabiga borib, adabiyot to'garagining bir guruh a'zolari bilan **Mutolaa** uch rashdim. To'garak rahbari Komila opa Ma'rupova ularni ko'proq badiiy kitoblar, durdona asarlar o'qishga qiziqtirar ekanlar.

Men ularning kitobga bo'lgan mehrlarini sinab ko'rish maqsadida an'anaviylaridan biroz boshqacharoq savol berdim:

- Bolalar, O'tkir Hoshimovning «Ikki eshik orasi» romanini yoki «Dunyoning ishlari» qissasini bir hafta davomida o'qigandan ko'ra, televizor orqali tomosha qilgan ma'qul emasmi?

Ularning aksariyati kitob o'qish ma'qulroq ekanligini, kinofilmlarda aks ettirilmagan qirralarini kitobdan bilish mumkinligini ta'kidlashdi. Javoblari esa quyidagicha bo'ldi:

KITOBMI... KINO?

Gulhayot BEKTO'RA-YEVA, 9-sinf o'quvchisi:
- Men hayotimni badiiy adabiyotlarsiz tasavvur qila olmayman. Ayniqsa, Said Ahmad, O'tkir Hoshimov qissa va romanlarini, Mahmud Toir, Muhammad Yusuf she'rlarini sevib o'qiyman.
Yaqinda Said Ahmadning «Oftoboyim» hikoyasini zo'r qiziqish bilan o'qib chiqdim. Hikoyadagi ona - Vatan, vatanparvarlik haqidagi fikrlarni o'qib, ko'p narsalarni anglab yetdim.

Musallam SAYDULLAYEVA, 8-sinf o'quvchisi:
- Men asosan tarixiy asarlarni sevib o'qiyman. Shundanmi, ustozimiz Komila opaning tarixiy mavzudagi hikoyalarini maroq bilan tinglayman.
Yaqinda Pirmqul Qodirovning «Yulduzli tunlar» romanini o'qib, tahlil qildik. Bir necha kungacha Boburning bolaligi, mashaqqatli kechgan umri xayolimdan nari ketmadi. Ayniqsa, yosh Boburning ulug' Navoiy ijodiga bildirgan cheksiz hurmati kishini to'lg'inlantiradi. Bobur 18 yoshga to'lg'anda Navoiy vafot etdi. Bu yo'qotish Bobur uchun juda katta fojia bo'ldi.
Shuningdek, Nodar Dumbadzening «Xellados» hikoyasi, Chingiz Aytmatovning «Oltovlon va yettinchi» asarlarida ham Vatan oldidagi burch haqida gap boradi. Ularni o'qib, daftarimizga Vatan, vatanparvarlik haqidagi maqol va rivoyatlarni yozib boramiz.
Yaqinda maktabimizning ma'naviyat va ma'rifat ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari Sayyora opa Pazliyeva biz yosh kitobxonlarni Imom Buxoriy yashab, ijod etgan Samarqand shahriga sayohatga olib bordilar. Go'ri Amir maqbarasi, Shohi Zinda, Registon maydonlarida sayr qildik.
17 yoshidan boshlab 600dan ziyod hadis yiqqan ulug' allomaning qadamjolarini ziyorat qilib, katta taassurotlar bilan qaytdik.

Inobat BOLTABOYEVA:
- Men bolalik va o'smirlilik haqidagi asarlarga qiziqaman. Oybekning «Bolalik», Abdulla Qahhorning «O'tmishdan ertaklar» kitoblarini sevib o'qiyman. Shunda beixtiyor biz uchun yaratilayotgan shart-sharoitlarning qadriga yetmay, to'qlikka sho'xlik qilayotgan ayrim tengdoshlarimdan ranjib ketaman...
Muhayyo TO'LAGANOVA, 3-maktab o'qituvchisi.

«ULUG'IMSAN, VATANIM!»

Hademay O'zbekiston mustaqilligining 15 yilligini keng tantana qilamiz. Butun mamlakat bo'ylab bu qutlug' sanaga qizg'in hozirlik ko'rilayotgan ayni kunlarda vatanparvarlik ruhida tarbiyalash masalalari haqida fikr bildirishdi. Poytaxtlik noshirlar O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida ham bu borada bir qancha tadbirlar rejalashtirilgan. Ana shunday tadbirlardan biri Andijon shahridagi Alisher Navoiy nomli bog'da «Ulug'imsan, Vatanim!» shiori ostida o'tgan Respublika kitob sayli, viloyat kutubxonasida tashkil etilgan «Vatan, sensan eng go'zal chaman» mustaqillik davri kitoblari ko'rgazmasi haqiqiy bayramga aylanib ketdi. Bayram tadbirlari doirasida O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi tizimidagi «O'zbekiston milliy ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti, «O'zbekiston», «O'qituvchi», «G'afur G'ulom», «Cho'lpon» nomli nashriyot-matbaa ijodiy uylari, «Sharq» nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi, «Ma'naviyat», «Yangi asr avlodi» nashriyotlari tomonidan so'nggi yillarda chiqarilgan ijtimoiy-siyosiy, adabiy-badiiy va boshqa mavzulardagi eng sara asarlar namoyish qilindi. Bayramning tantanalari qismida viloyat hokimi S.Begaliyev, O'zbekiston xalq shoiri, «O'zbekiston qahramoni» Abdulla Oripov, O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi bosh direktori B.Alimov so'zga chiqib, mana shunday

Respublika kitob bayrami



kitob ko'rgazmalari, kitob mutolaa qilish madaniyati, yoshlarni va boshqa kitob bayrami qatnashchilari viloyat kutubxonasida mustaqillik yillarida chop etilgan kitoblardan iborat O'zbekiston Mustaqilligining 15 yilligiga bag'ishlangan «Vatan, sensan eng go'zal chaman» mavzusidagi ko'rgazmaning ochilishida qatnashib, ko'pgina kitobxonlar bilan muloqotda bo'ldilar.
Shundan so'ng, Matbuot va axborot agentligining rahbarlari, nashriyotlarning mas'ul xodimlari Andijon shahridagi 2-Mehribonlik uyi kutubxonasiga o'quv darsliklari, badiiy adabiyotlar va bolalar kitoblarini taqdim etdilar.
Bayramda qatnashgan O'zbekiston xalq yozuvchilari Muhammad Ali, Tohir Malik, O'zbekiston xalq shoiri Anvar Obidjon, taniqli shoir, «Sharq yulduzi» jurnali Bosh muharriri Minxojiddin Mirzo, shoirlar Qamchibek Kenja, Xurshida va boshqa ijodkorlar, noshir va jurnalistlar Andijon muhandislik iqtisodiyot institutida, Andijon pedagogika kasb-hunar kollejida hamda shahardagi Farobiy nomli mahallada bo'lib, kitobxonlar bilan qizg'in uchrashuvlar o'tkazdilar.
Muxbirimiz.

ULUG'BEKNING TUYG'ULARI OQ...

Uning qalb olamida behisob chiroyli orzular bor, hayotbaxsh umidlar, kurashchan, oppoq tuyg'ular bisyor. Ayni vaqtda Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti gimnaziyasida tahsil olayotgan Ulug'bek Rahmonqulov she'riyatga ko'ngil qo'ydi, avvaliga xayoliga kelgan satrlarni shunchaki qog'ozga tushirgan bo'lsa, bora-bora mulohaza qilishga, mushohada yuritishga



odatlandi. Tez aytish va topishmoqlar o'ylab yuradigan, ko'nglidan kechganlarini obdon pishiqlab, so'ng yozadigan bo'ldi.

«Ijodning to'qson to'qqiz foizi mehnat», - deyilar. Agar Ulug'bek tinmay mehnat qilsa, barchaga ma'qul va manzur bo'ladigan she'rlar yozishi shubhasiz. Bu yo'lda unga qunt va sabot tilaymiz.

Gulchehra JAMILOVA.

BIBIXONIM

Siz sokin boqasiz minoralardan,
Nigohingiz sehri sochgusi ziyo.
«Bardam bo'l» degandek olis moziydan,
Bir sado berasiz, qo'shiqday go'yo...

Minglab, millionlab o'g'il va qizlar,
Sohibqironga ham, sizga ham izdosh.
Mehringiz tafti bor ul Samarqandda,
Minoralarini bezar bo'lib bir quyosh.

Bibixonim, Sizga dunyo hayratda,
Tillarda dostondir jasoringiz.
Hali yana o'tar asrlar qancha...
Bizga o'rnak erur mahobatingiz.

ONA


Jajji bolajon deb erkalayvermang,
Axir men ulg'aydim, qalbmida jur'at.
Bag'ringizdan katta yo'l tomon ketay,
Unda kutar meni yorug' kelajak!

Ertaklar aytdingiz mardlik haqida,
Endi mard bo'lmoqqa chog'landim, ona.
Maqol to'qingiz go'zal, xalqona,
Endi men ham yurtga bog'landim, ona.

Jajji bolam deya erkalayvermang,
Men endi ulg'aydim, chorlar davonlar.
Oldinda kutmoqda nurli kelajak,
Jur'atim sinaydi har kun, har onlar.

Ulug'bek RAHMONQULOV.

ANDIJONLIKLAR O'ZLARINI YAXSHI KO'RISHADI



Viloyatimizda farzandlar kamolini o'ylab, ularning sport bilan emin-erkin shug'ullanishlariga shart-sharoit yaratib berish istagida yurgan homiy akalar juda ko'p. Ular kattagina mablag'ni Bolalar sportini rivojlantirish viloyat jamg'armasiga o'tkazishgan.

Menimcha, o'zini yaxshi ko'radigan odam sport bilan shug'ullanadi, farzandlarini ham sportga jalb etadi. Bunday sportchi oilalar Andijonimizda ko'plab topiladi. Demak, andijonliklar uzlarini juda yaxshi kurishadi.

Qadimgi So'g'dda ota-ona va mahalla-ko'y o'z farzandini hech qachon bo'sh qo'ymasdan, foydali mashg'ulotlar bilan band etar ekan. Bekor qolgan bola bezorilikka sho'ng'ishini yaxshi bilisharkan-da. Sport bilan bandlik esa bolani egri yo'llardan qaytaradi.

Yozgi ta'til mavsumida farzandlarimizni sportga jalb etish tadbirlarini ishlab chiqdik. Barcha sport marabbiylari sog'lomlashtirish oromgohlariga va mahallalardagi sport klublariga jalb etildi. Maqsadimiz bitta - yoshlarga to'g'ri tarbiya berish.

Hademay yozgi ta'til boshlanadi.

Oromgohlar bolalarning shodon kulgusi, qiy-to'ladi. Farzandlarimizni yozgi ta'til davrida mazmunli dam olishlari maqsadida oromgohlarni sport jihozlari bilan ta'minlash va ularga malakali sport murabbiylarini jalb qilishga ham jamg'armamiz o'z hissasini qo'shyapti. Oromgohlarda yangi sport to'garaklari ochib, qiziqarli musobaqalar uyushtirish haqida hozirdanoq bosh qotiryapmiz. Maqsadimiz bitta - yoshlarga tugri tarbiya berish!

Viloyatimizdagi bolalar uchun yangi qurilgan sport inshootlari va jihozlari maqto'vga loyiq. 16,5 million sumlik sport jihozlarini bizga Respublika jamg'armasidan yuborishgan.

Andijonimiz bir qancha mashhur sportchilar yurti ham sanaladi. Jismoniy tarbiya o'qituvchilari va sport murabbiylarini ishini kuzatsangiz, o'z ishining ustalari ekanligiga amin bulasiz.

BOLALARIMIZGA O'ZIMIZ HAM HAVAS QILDIK

Ikromjon aka yana bizni Andijonning so'lim bir go'shasiga boshlaydilar. Bir-biridan chiroyli sport inshootlarini ko'rsatib, yana suhbatga berilib ketdilar.

- Hukumatimiz tomonidan yaratib berilayotgan bunday shart-sharoitlar tezda o'z samarasini berdi. Mana, Bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasi sovrini uchun Navro'z umumxalq bayramiga bag'ishlab o'tkazilgan belbog'li kurash musobaqalarida viloyatimizning 50 mingga yaqin bolalari va o'smirlari qatnashichdi. Musobaqalar davomida bolalarimizning epchilliklariga uzimiz ham havas qildik.

Viloyatimiz jamoasi Respublika bosqichida g'olib chiqib, 8 ta oltin, 6 ta kumush, 1 ta bronza medallari bilan qaytishgani yana ko'nglimizni quvonchga to'ldirdi. «Homiyilar va shifokorlar yili» Davlat dasturi bo'yicha tashkil etilgan ommaviy yugurish marafoni o'tkazishda ham sportsevar



bolalardan jamg'arma filiali hech narsani ayamadi.

Izboskan tumanida Muay-tay, Baliqchi tumanida belbog'li kurash, Shahrixon tumanida kiokushin-kaykan karate, Bo'z tumanida jahon chempioni Farhod Xolmuhammedov xotirasiga bag'ishlab turnir musobaqasini tashkil etdik. Andijon tumanida kik-boksing bo'yicha jamg'arma sovrini uchun sport musobaqalari tashkil etilib, tadbirlarga 5 milliondan ziyod mablag' sarfladik.

Jamg'armamiz yordamida Toshkent va Namangan shaharlaridagi gimnastika musobaqalariga borgan sportchi qizlarimiz sovrinli o'rnlarni egallab qaytishdi...

Andijondan qaytar ekanmiz, viloyatning bir-biridan go'zal sport inshootlari yoshlar istiqboli uchun xizmat qilayotganidan suyundik.

O'tgan yili 12-13-may kunlari bo'lib o'tgan Andijon voqealaridan tegishli xulosa chiqargan jamg'arma xodimlari yoshlar bilan ishlashda o'z faolligini oshirganliklarining guvohi bo'ldik. Sport zallarida, o'yingohlarda bolalarning sport bilan ko'proq band ekanliklarini ko'rib, Andijonning buguni, ertasi ishonchli qo'llarda ekanligiga amin bulib, ular bilan xayrlashdik.

Ikromjon FOZILOV,

*Bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasi,
Andijon viloyati filiali direktori.*

Ayni kunlarda barcha tengdoshlarim kabi mening maktabdoshlarim ham qattiq hayajondalar. Nega, deysizmi? Axir to'qqiz oy olgan bilimlarini sinovdan o'tkazish payti yaqin-da.

Maktabimiz tumandagi eng sara maktablardan biri desam, mubolag'a qilmagan bo'laman. Chunki har bir o'quv soatlarimiz qiziqarli va munozaraga boy o'tadi. Albatta bunda maktab rahbarimiz va mehribon o'qituvchilarimizning hissalarini katta. Ayniqsa, ertalabki saf tortish chog'ida o'tgan hafta reytinglari hisoboti berib borilishi yutuqlarimizga katta ta'sir ko'rsatyapti.

TA'TIL TATIYDIMI?

Darslarimiz o'quvchilar o'z-o'zini boshqarishi asosida o'tadi. Har haftada bir yoki ikki marta «muallimlik» vazifasini bajaramiz. Buning samarasi bizning sinfda yaqqol sezilyapti. O'zlashtirishi past bo'lgan sinfdoshlarim yaxshi o'quvchilar qatoriga o'tishdi. Hozir esa fan o'qituvchilarimiz har bir soatimizda yil imtihonlariga tayyorlab, qo'shimcha mashg'ulotlar olib borishyapti.

Biz ham hademay boshlanadigan yillik sinovlardan muvaffaqiyatli o'tib, yozgi ta'tilda miriqib dam olish harakatidamiz. Imtihondan past baho olsak yoki o'tolmasak, ta'til tatiydimi, axir?

Yodgora SODIQOVA,

Toshkent viloyati, Qibray tumanidagi 30-umumta'lim maktabining 7-«G» sinf o'quvchisi.

OLYGOHGA SAYOHAT

Maktabimizda «Ilhom» to'garagi ko'p yillardan buyon faoliyat ko'rsatadi. 25 dan ziyod ijodkor bolalar shu to'garakka a'zomiz.

Yaqinda to'garak rahbarimiz Lola opa Xidoyatova boshchiligida Jahon tillari universitetining xalqaro jurnalistika fakultetiga sayohatga bordik. U yerda bizni fakultet dekani Xislat aka Mahammadaliyev iliq kutib oldilar. Har birimiz bilan yaqindan tanishib, qiziqish va orzularimizni surishtirdilar. Suhbat davomida shu fakultetda tahsil olayotgan aka va opalarimiz maqsadi - O'zbekistonni jahonga, jahonni esa O'zbekistonga tanishtirishdan iborat ekanligini ta'kidlab o'tdilar.

Oliygohta hamma fanlar, ayniqsa, chet tillari chuqur o'rgatilgan ekan. Yaxshi o'qiydigan talabalar malaka oshirish uchun chet elga yuborilar ekan.


Fakultetning o'z telestudiyasi, radiostudiyasi, «Intellect» nomli gazetasini chop etuvchi kichik nashriyoti ham bor ekan.

Menga bu yerdagi shart-sharoitlar juda yoqdi. Nasib qilsa, men ham shu oliygohtning talabasi bo'laman.

Mahmudjon AZIMOV,

poytaxtimizdagi 169-maktab o'quvchisi.

Menda havas uyg'ondi



KECHALARI ERTAK, RIVOYAT TINGLAB...

1936-yil 29-martda Toshkentning eski mahallalaridan birida, ziyoli oilada dunyoga kelgan Miraziz akadagi adabiyotga bo'lgan ishtiyoq onalari Xatira Muhammadkarim qizining ta'sirida uyg'ongan bo'lsa, ajabmas. 5 yoshli chog'ida otasi Ikkinchi jahon urushida halok bo'lgan jajji Miraziz kechalari onasi kuylagan qo'shiq va termalarni, so'zlagan doston-u ertaklarni tinglab ulg'aydi. Xatira opa urushning og'ir, suronli yillari bo'lishiga qaramay, o'g'lining badiiy kitoblar o'qishi, kino va teatrlarga borishi uchun sharoit yaratishga intilardi. Chunki bu narsalar farzandi kamolida muhim omil ekanligini juda yaxshi bilardi-da.

O'rta maktabni oltin medal bilan tamomlab, oliy tahsilni Toshkent Davlat Universiteti (hozirgi Milliy Universitet)da olgan Miraziz aka yangi ochilgan telestudiyada muharrirlik qila boshladilar. Lekin bolalar adabiyotiga bo'lgan ishtiyoq ustunlik qilib, ularni «G'uncha» jurnali sari yetakladi va bu dargohda bir necha yillar davomida adabiy xodim bo'lib mehnat qildilar.

1979 - yilning oxirlarida Afg'onistonga kirgan «Qizil imperiya»ning «cheklangan harbiy qismlari» tarkibidagi xizmatlari adibni ancha ulg'aytirib qo'ydi. Keyinchalik Adabiyot va san'at nashriyotida katta muharrir, O'zbekiston Yozuvchilar Uyushmasi Boshqaruvining ijodiy ishlar bo'yicha mas'ul kotibi kabi vazifalarda faoliyat ko'rsatib, shoir, noshir, tarjimon, dramaturg va maqolanavis sifatida qalam tebratdilar. Talabalik yillarida yozilgan ilk she'rlari 1960-yilda «G'uncha»



BULUT BO'LIB QOLAMAN

Aka, meni ursangiz,	Manglayga bir urasiz.
Bulut bo'lib qolaman.	Qancha afsus-nadomat,
Uzoqlarga ketaman,	Qilsangiz ham baribir.
Tog'larga yo'l olaman.	Men qaytmayman orqamga,
Sira qaytib kelmayman,	Qalbingiz og'rir zir-zir.
Yomg'ir bo'lib yig'layman.	Urmay so'zlang akavoy,
Suv bo'lib to'planaman,	Ko'p iltimos qilaman.
Daryo bo'lib oqaman.	Agar yana ursangiz,
O'shanda siz orqamdan,	Bulut bo'lib qolaman.
Izlab, chopib yurasiz.	
Bekor xafa qildim, deb,	



«JUDA-JUDA SIP-SILLIQ, MAKTAB DEVORI...»

Sevimli yozuvchimiz Miraziz A'zam haqida gap ketgudek bo'lsa, uning «G'alati tush» nomli she'ridagi ushbu misralar yodinga tushaveradi:

Juda-juda sip-silliq,

Maktab devori.

Ko'rsang tutib qoladi,

Rasm humori...

Nazarimda 1960-yilda yozilgan bu she'rni bolaligimda emas, kechagina yod olgandekman...

Shunda, bolalik olamiga yaqin insonlar hech qarimaydilar, degan gapning rostligiga yana bir bor amin bo'laman.

Miraziz akaning 70 yoshga to'lganlarini o'zlaridan emas, boshqalardan eshitganimda, bu gapga hecham ishonmagan bo'lardim.



jurnalida chop etildi. Keyinchalik bosmadan chiqqan «Aqlli bolalar», «Senga nima bo'ldi?», «G'alati tush», «Yer aylanadi», «Yerga dovrug' solamiz», «Bir cho'ntak yong'oq», «Qirq bolaga qirq savol» kabi bolalarga atalgan she'riy to'plamlarini, «Eng yorug' yulduzlar» nomli maktab sahnasi uchun mo'ljallangan pyesalar, tarixiy hikoyachalar, maqolalar to'plamini bolajonlar qo'lma-qo'l qilib o'qiy boshladilar.

Ayniqsa, 2005 - yilda bolalar uchun yozilgan asarlarining «Saylanma» holida chop etilishi yosh kitobsevarlar uchun ajoyib sovg'a bo'ldi. Undagi hikoyalar orqali yozuvchi bolalarni qalbi va tuyg'ulari yordamida olamni, odamlarni bilishga, yaxshilik bilan yomonlikni farqlashga, halol va pokiza mehnatni ulug'lashga o'rgatadi.

Bugungi kunda Miraziz A'zam nafaqat o'zbek, balki boshqa xalqlar bolalarining ham sevimli adiblaridan biri sanaladi. Chunki uning she'riy to'plamlari rus, ukrain, turkman, belorus, moldovan, qirg'iz, ozarbayjon, latish, mo'g'ul va boshqa tillarga ham tarjima qilingan.

Yozuvchining jahon adabiyoti durdonalari sanalmish Nizomiy Ganjaviy, Fariddin Attor, Jaloliddin Rumiy, Abdurahmon Jomiy asarlaridan o'girmalari, shuningdek, buyuk olim va mutafakkir Abu Homid G'azzoliyning «Mukoshafat-ul qulub» asari tarjimasini, rus, nemis, fransuz, ingliz, turk, italyan va boshqa 60dan ziyod xalqlar bolalar she'riyati namoyondalari asarlaridan o'girmalari o'zbek kitobxonlari qo'lidan tushmay kelyapti.

O'qing, havas qiling!

Aziz bolajonlar, shoir, yozuvchi, tarjimon, dramaturg va maqolanavis sifatida faoliyat ko'rsatib kelayotgan sevimli adibimizni tavallud kunlari munosabati bilan qutlab, yozgan hikoyamizni o'qib, ularga astoydil havas qilgan bo'lsangiz kerak-a? Balki bunday serqirra ijodkor bo'lish uchun nima qilish kerakligi to'g'risida o'ylab qolgandirsiz?

Bunday savol bilan Miraziz akaning vaqtlarini olgimiz kelmadi. Lekin so'raganimizda aminmanki:

«Bolajonlarimiz avvalambor bugungi mustaqil va farovon hayotimizning qadriga yetishsin. Biz ko'rgan qiyinchiliklarni ko'rishmasin. Vaqtni qadrlashni o'rganishsin. Puxta bilim olib, til o'rganishsin. Eng muhimi, yoshlikdanoq biror kasb yoki hunarga astoydil mehr qo'yib, unga yetishish yo'lida izlanishsin», degan bo'lardilar.

Feruza JALILOVA.



ASL TARVUZ, ASAL TARVUZ

Qumoq-qumoq qizil suv,
Og'zimga yoqib ketdi.
Asalmi, sharbatmi u,
Ichimga oqib ketdi.

Suvi qizil bo'lsa ham,
Urug'i qora ekan.
To'ni silliq, beqasam,
Turi ham sara ekan.

Kosa qilib xo'pladim,
Danagini yutmadim.
Kelasi yil ekay deb,
Mis barkashga to'pladim.

Miraziz A'ZAM.

O'ZBEGIM O'G'LONLARI

O'zbekim o'g'lonlari,
Vatanim posbonlari,
Siz borsizki, daxlsiz,
Yurtdoshlarim jonlari.
O'zbekimning sha'nini,
Yigitlikning nomini,
Oqlab yuring doimo,
Elning mard arslonlari.
Opa-singil nomusin,
O'z oringiz deb biling.
Asrab uni har joyda,
Orli, g'ururli bo'ling.
Onalarning duosi,
Bo'lsin doim sizga yor.
Otlar nasihatini,
Tinglangiz misli alyor.
Temurning naslidansiz,
Alpomish izdoshlari.
Manguberdi avlodi,
Elning jo'mard yoshlari.

*Nilufar UMAROVA,
Toshkent viloyati, Oqqo'rg'on
tumanidagi 12 - maktabning
8 - sinf o'quvchisi.*

PARIVASH

Quyosh ko'tardi boshin porlag'on la'mo aro,
Ko'rdim bir suluv qoshin kabi qush sabo aro.
Ko'klam erdi o'shal on, ko'nglumda erdi tarab,
Ul suluv turur edi poyonoz zulfin tarab.

Xo'b ilg'ash komida bordum yaqinroq dil azmida,
Ne ko'z ila ko'rayki, ul suluv qizlar bazmida.
Birining qo'li xino, birining qoshi kamon,
Ul kamondir kiprik o'q otillar qabllar tomon.

Alar ichra gulnigor qiz o'g'irladi hushimni,
Anglolmadim, ul sarobmi, yoxud ko'rgan tushimmi?
Ko'zim ochibul parini izladim men ichra ark,
Ming afsuski, ul parivash aylagandi meni tark.

*Muxlisa MUSAXO'JAYEVA,
poytaxtdagi «Avia» litseyining
10 - «A» sinf o'quvchisi.*

BAHOR IFORI

Bir epkin esmoqda sarrin va mayin,
Daraxtlar shoxida kurtaklar kuldi.
Yorishib bormoqda ruhim kun sayin,
Ayoq-qishning qasri nogoh buzildi.

Qirlar alvonlandi, borliq jonlandi,
Qadim hovlilarda qaldirg'och sasi.
«Bahor» degan so'zdan dil ilhomlandi,
Jonga malham bo'ldi ko'klam nafasi.

Jajji bolakaylar uchirgan varrak,
Samoni quchgaydir bo'lib oppoq qush.
Qizchalar boshida yashil tolbargak,
Momolarga quvonch baxsh etar dilxush.

Quyosh charaqlaydi, olam yashnaydi,
Zilolga aylanar tog'larning qori.
Dunyoni ezgulik sari boshlaydi,
Mustaqil yurtimda bahor ifori...

*Maftuna ESANOVA,
Toshkent shahar, Sirg'ali tumanidagi
301 - maktabning 11 - sinf o'quvchisi.*

XAYOLIM OSHXONADA

Bir kun darsda qornim juda ochib ketdi,
O'y-xayolim oshxonaga parvoz etdi:
Qozonvoyda zo'r dimlama, qarang, ana,
Tovada ham totli quymoq pishar yana.
Elakda-chi, un elanar nozinga,
Pishgandan so'ng tushirsaydim qoringa.
Gaz ustida choy qaynar xurрак otib,
O'qlov bilan taxtakach ishlar yotib.
Mantiqozon biqir-biqir qilib qaynar,
Muzlatgichda ovqatlarga ko'zim o'ynar.
Oh-oh, debman lablarimni yalab shu on,
Holatimga boqib turar ustoz hayron...

*Munisa KOMILOVA,
poytaxtdagi 14 - maktabning
5 - «A» sinf o'quvchisi.*

So'lim, Zomin chorlaydi Sizni**HISSIYOT**

Tomchi-tomchi yog'ar yomg'ir,
Ko'z yoshlarim o'xshar unga.
Bu kun quyosh kuldi tongda,
Kulgularim o'xshar kunga.
Kechalari yulduz porlab,
Baxsh etadi ziyo tunga.
Unga boqib hech to'yamayman,
Tuyg'ularim misol bunga.

*Gulhayo SATIQULOVA,
Andijon viloyati, Izboskan tumanidagi
39 - ixtisoslashgan maktab-internatining
10 - sinf o'quvchisi.*

AKAMGA TILAKLARIM

Akajonim, akajon,
Sog'-omon bo'ling, deyman.
Onajonim baxtiga,
Quvvatga to'ling, deyman:

Bizning baxtimizga ham,
Siz doimo sog'bo'ling.
Oilamiz tayanchi -
Bamisli bir tog'bo'ling.

*Gulshanoy TO'RABOYEVA,
Andijon viloyati, Marhamat
tumanidagi 35 - maktabning
5 - «A» sinf o'quvchisi.*

USTOZIM GAVHAR OPAGA

Dunyoda ikki zot aziz, mo'tabar,
Birlari ustozdir, biri onadur.
Ollohim yaratmish ularni biz-chun,
Mehr-u saxovatda u yagonadur.
Quvonch tashvishi mo'l dunyo azim,
Qayg'ulardan yiroq bo'ling ustozim.
Siz kutgandek buyuk bo'lolmasam-da,
Lek umrbod sizga qilgumdir ta'zim.
Bilim bulog'ingiz qaynasin mudom,
Bergan sabog'ingiz bog'lasin qanot.
«Ustozingga rahmat!» degan olqishni,
Eshitish naqadar ulkan saodat.

*Sevara SHAMSIYEVA,
Qashqadaryo viloyati, Kitob
tumani, Ayoqchi qishlog'i.*

SHAFTOLI GULI

Ko'zim ochsam tong chog'i,
Tabiatda ajib hol.
Ona zamin boshiga,
O'rabi pushti ro'mol.

Go'zallikdan ko'zlarim,
Behad hayratga to'ldi.
Dunyoning tashvishlari,
Bir zumga unut bo'ldi.

Men ko'rgan pushti ro'mol,
Shaftoli guli ekan.
Go'zallikni qay buyuk,
Rassom yaratdi ekan?

Tasanno iste'dodning,
Ilhomi bulog'iga.
Bu gulni taqib qo'ygum,
She'rimning qulog'iga.

*Dilnoza RASHIDOVA,
Toshkent shahar, Hamza tumanidagi
153 - maktabning 6 - «A» sinf o'quvchisi.*

AYAJONIM

Sizga so'ngsiz ehtiroimim,
Qalbidagi hayajonim,
Hammadan ham mehribonim,
Ayajonim, ayajonim!
Duogo'yim, baxtim tilab,
Alqagaysiz meni doim.
Mehridaryo farishtasiz,
Ertakdagi Mohlaroyim!

*Dinora MUSTAFOYEVA,
Jizzax viloyati, Baxmal
tumanidagi 30 - maktabning
3 - «A» sinf o'quvchisi.*

TINCHLIK TILAB

2005 - yilning yoz oylari edi. Chet elga bilim
olish uchun ketgan o'g'il uyiga - vatani Andijonga
qaytdi. Aeroportda onasi yolg'iz o'zi, g'amgin
qiyofada kutib olayotganini ko'rib, hayron bo'lib
so'radi:

- Ona, nechun kiyiming qora,
Yuraging xun, bo'libdi pora?
Otam qayda, nechun ko'rinmas,
Kelganimdan nahot suyunmas?

Andijonim solindir nega,
Tushuntirgin jon ona menga.
- Qora butut soya tashladi,
Nomard g'amim ishin boshladi.

O'z yurtiga hujum qildi u,
O'tajoning ko'ksin tildi u...
Sezdirmaslik uchun yoshini,
O'g'il asta egdi boshini.

Boshi sarak, yerga tiz cho'kib,
Yerni mushtlar dardini to'kib.
Ko'z yoshlarin ichiga yutdi,
Onasining qo'lidan tutdi.

- Xafa bo'lma onajon, zinhor,
Endi otam izdoshi bor.
Uning o'chm olgum albat,
Lekin tirik qolgum albat...

Bu so'zlarni tinglab ona,
Duo qilar o'g'lin yana.
Yaratganga shukr aytdi,
Bag'ri to'lib uyga qaytdi.

*Nigora MIRSODIQOVA,
Toshkentdagi 315 - maktabning
10 - «B» sinf o'quvchisi.*

Uzoq-uzoq tumanda bir chiroyli, lekin juda g'amgin qiz yashar ekan. U o'ziga o'xshagan moviy ko'zli, sariq va mayin sochli, ikki yuzi qip-qizil, dunyodagi eng chiroyli qo'g'irchog'i bo'lishini orzu qilardi. Lekin bu orzusi ushali shiga o'zi ham ishonmasdi. Chunki ota-onasi o'lib ketgan, qiz birovlar qaramog'ida zo'r-bo'zo'r yashardi-da!

Kunlardan bir kun anhordan ko'zada suv olib kelishga borganda, suvda bir nima oqib kelayotganini ko'rib qolibdi. Ko'zani chetga qo'yib, anhor bo'yidagi majnuntolning shoxiga osilib oqib kelayotgan narsani qirg'oqqa olib chiqibdi. Ne ko'z bilan ko'rsinki, bu qo'g'irchoq edi. Lekin bu qo'g'irchoq u o'ylagan, tushlarida chiqadigan aksi edi. Uni sochlari ilashib, ko'ylaklari edi. Qizcha g'irchoqni tozalab yuvib, sochlarini qosh-kipriklarini chiroyli qilib o'zining qolgan qirg'ib yangi ko'ylakchalar, nimchalar tikdi. Xayolidagi qo'g'irchoqqa o'xshataman deb ikki yuzini qalam bilan bo'yadi. 2-3 kunlik tinib-tinchimay qilgan urinishlari zoye ketmadi. Qo'g'irchoq orzu qilgan katta do'konning oynasida ko'rganchalik chiroyli qo'g'irchoq bo'lmasa-da, binoyidek edi. Qiz uni qo'lidan qo'ymas, bog'chaga ham bag'riga bosganicha borardi. Bolalar uning qo'g'irchog'ini qo'lidan tortib olib, bekitib qo'yishar, kiyimlarini kir qilib tashlashardi. Eski qo'g'irchoqni ko'tarib yuribdi, deb mazaxlashardi. Lekin qiz shunda ham qo'g'irchog'ini tashlamas, unga yana yangi kiyimlar tikar, oldingidan ham chiroyli qilishga intilar edi. U qo'g'irchog'iga ertaklar aytib beraverib, u bilmagan ertak qolmabdi. Qo'g'irchog'iga she'r borki, barchasini o'qib, yodlab aytib berib, bog'chada eng ko'p she'r biladigan qizga aylanibdi. Qo'g'irchog'iga kiyimlar tikib beraverib, tikuvchi qiz bo'lib ketibdi. Sochlarini o'rayverib, tarayverib, zo'r sartaroshga aylanibdi.

Bu orada Yangi yil bayrami ham kelibdi. Bog'chaga uzoq qorli yurtlardan Qorbobo va Qorqiz tashrif buyuribdi. Katta tomosha bo'libdi. Hamma bolalar o'z hunarlarini namoyish etishdi. Navbat qizga kelibdi. U qo'g'irchog'iga aytib bergan ertaklari, o'qib bergan she'rlaridan parchalar aytib beribdi. Hammani lol qoldiribdi. Qorbobo ham xursand bo'lib, qarsak chalib yuboribdi. So'ng, sovg'a to'la qopiga qo'lini solib, shunday debdi:

-Ofarin qizim, barakalla. Sen juda dono, aqlli ekansan. Senga eng zo'r sovg'amizni topshiramiz.

U shunday deya, qopidan... qiz ne ko'z bilan ko'rsinki, o'sha o'zi orzu qilgan, katta do'konning oynasida turgan qo'g'irchoqni uzatdi. Hamma uni olqishlashdi.

Qiz uyiga qaytar ekan, dam yangi, bashang, chiroyli qo'g'irchog'iga, dam o'zining qarddon qo'g'irchog'iga tikilib borar edi. Kechqurun uxlashga yotishda yangi qo'g'irchog'ini bag'riga bosib yotibdi. Kechasi tush ko'ribdi. Tushida eski qo'g'irchog'i undan xafa bo'lib, anhor tomonga ketayotganmish. Cho'chib uyg'onib qarasa eski qo'g'irchoq yo'q emish. Hammayoqni qidirib chiqibdi. Topolmabdi. Ungacha tong ham otib qolibdi. Shosha-pisha anhor tomonga chopibdi. Suvga tikilib uzoq o'tiribdi. Lekin qo'g'irchog'idan darak bo'lmabdi. Kechqurun xomush uyga qaytibdi. Ovqat ham yemay qo'yibdi. Ertalab yana anhora boribdi. Qo'g'irchog'ini topolmabdi. Yangi, chiroyli qo'g'irchog'i yana mung'ayib bir chetda qolib ketibdi. Qiz hamon eski, oddiy, o'zi parvarishlab mehr qo'ygan qo'g'irchog'ini kutib yasharkan.

taradi. ko'zlari, qalam bilan chizib chiqdi. kichkina bo'lib kiyimlaridan qo'g'irchoqqa o'xshataman deb ikki yuzini qalam bilan bo'yadi. 2-3 kunlik tinib-tinchimay qilgan urinishlari zoye ketmadi. Qo'g'irchoq orzu qilgan katta do'konning oynasida ko'rganchalik chiroyli qo'g'irchoq bo'lmasa-da, binoyidek edi. Qiz uni qo'lidan qo'ymas, bog'chaga ham bag'riga bosganicha borardi. Bolalar uning qo'g'irchog'ini qo'lidan tortib olib, bekitib qo'yishar, kiyimlarini kir qilib tashlashardi. Eski qo'g'irchoqni ko'tarib yuribdi, deb mazaxlashardi. Lekin qiz shunda ham qo'g'irchog'ini tashlamas, unga yana yangi kiyimlar tikar, oldingidan ham chiroyli qilishga intilar edi. U qo'g'irchog'iga ertaklar aytib beraverib, u bilmagan ertak qolmabdi. Qo'g'irchog'iga she'r borki, barchasini o'qib, yodlab aytib berib, bog'chada eng ko'p she'r biladigan qizga aylanibdi. Qo'g'irchog'iga kiyimlar tikib beraverib, tikuvchi qiz bo'lib ketibdi. Sochlarini o'rayverib, tarayverib, zo'r sartaroshga aylanibdi.

Zamonaviy ertak

QO'G'IRCHOQ



BILIM BAXT KILTIRAR

Bir bor ekan, bir yo'q ekan, juda qadimda emas, balki bizga yaqinroq zamonda, Hulkar ismli tantiq, o'ziga bino qo'ygan bir qiz bo'lgan ekan. U hamisha o'z bilganidan qolmasdi. Qizining injiq fe'l-u atvorini ko'rib, onasi o'z yoshligini eslabdi.

- Ajabo, men ham yoshligimda xuddi qizim singari betga chopar, injiq edim-a. Shu fe'l'ndan qutulishim uchun onajonim qanchalik harakat qilgandilar. Ular har kuni menga nodir kitoblardan parchalar o'qib berar, yaxshilik, yetaklovchi ertaklar aytar va o'zim bilmagan Demak, onajonimdek o'z qizimni so'z da. Shunday xayollar bilan Nafisa opa qizi qizini ertak tinglashga ko'ndiribdi va ertagini

- Qadim zamonda Malika ismli qaldirg'och qanotidek qayrilgan, barchaning aqlini lol etarkan. U zehni, odobi, xulqi bilan har qanday Hatto ota-onasi ham ba'zan qizlarining yurtga xavfli kasallik yog'ilibdi. Bundan boshlabdi. Hatto beshikdagi go'daklar ham og'ir xastalikka uchrayotgan emish. El sarosimaga tushib qolibdi. Shunda Malika otasiga qarab: - Otajon, ayni sahar chog'i Qoratog' cho'qqisiga chiqib, yuz ochgan lolaning gul bargidagi shabnam suvlarini yig'ib, qishlog'imiz yonidan qaynab chiqayotgan buloq suvlariga qo'shib yuboring. Xaloyiq ushbu suvdan olib, bolalariga, mol-holiga ichirsin. Suvni faqat shabnam suvi qo'shilgan paytida olsagina ofat ortga chekinadi. Chunki lolalarning gul bargida ofatga davo bo'luvchi sehrlil modda bo'lib, u faqat shabnam suvidagina eriydi, - debdi. Qizining bu gapidan lol qolgan otasi shu tun uyquning baxridan kechib, uning aytganlarini bajo qilibdi. Ertasi kuni g'am-qayg'udan horigan xalqning diliga shodlik qaytibdi. Malikaning otasiga qayta-qayta rahmatlar aytishibdi. Shunda otasi, minnatdorchilikni menga emas, dono qizimga aytinglar, men uning aytganlarini bajardim xolos, debdi. Malika esa, buni men mana bu qo'limdagi nodir kitoblardan o'qib bilib oldim, barcha rahmatlar ularniki, deya e'tiroz bildiribdi.

Ertak tugagach, Hulkar yugurib o'rnidan turibdi-da, uylaridagi kichkina javondagi kitoblarni titkilay boshlabdi. Ular orasidan mo'jzagina bir kitobni tanlab olib, o'qishga tushibdi. Oradan bir haftalar vaqt o'tgach, Hulkaroy butunlay boshqa qizga aylanibdi. Onasi esa qizining bu holatini kuzatar ekan, astagina pichirlab, xayriyat, deb qo'yibdi.

Shahnoza OQBO'TAYEVA,

Samarqand viloyati, Kattaqo'rg'on tumanidagi 27-maktabning 10-sinf o'quvchisi.

ESHIKKA YOZILGAN XAT

Tugab qoldi ishlar ham,
Xayr. Ona men ketdim.
Darsga kechikib borsam,
Urushar muallimim.

x x x

Kimdir kitob o'qir,
Kim chimirib turar qoshini.
Kimdir kular,
Kim esa kasal.
Birov esa artar yoshini.
Men-chi?
She'rni bir chetga qo'yib,
O'zim bilan tushaman bahsga.
Birov uxlar shirin tush ko'rib,
Birov kechikadi yashashga.

DUNYO

Dunyoning ko'ksiga,
Qadaldi o'qlar.
Bir vujud joniga,
Qasd qildi zamon.
Yo'qolgan tunini,
Bedorlik bilan.
Kuzatib qo'yar u,
Parvo qilmasdan.
Yotardim behushday,
Nechun uyqudan.



Uyg'onish qiyindir,
Atrof sokinlik.
Mehr yo'q, shavqatlar,
Uni tark etgisi.
Keladi negadir?
Butkul ketgisi
Yoshlikning qayg'usi,
Tinch uxlayapti.
U tun og'ushimda,
Sokinlik imlayapti.

Sevinch NORQOBILOVA,
17-lingvistik gimnaziya maktabning
6-sinf o'quvchisi.

Tengdoshlaring ijodi

BO'LMAGANDA AGAR OTALAR...

Bo'lmaganda agar ota,
Unda nima bo'lar edi?
O'ylayman buni yota,
Shunda savol kelib chiqdi.
Bunday sodda bir savoldan,
Ishonmasang gar eshitgin.
Balki yordam berarsan,
Bo'lmaganda agar ota,
Nima qilar edi ona?
Balki shirin chiqmasdi osh?

Joyidan surilmasdi tosh?
Kimni pahlavonlar derdik?
Jonajon adajon derdik?
Shunga o'xshash savollarim,
To'lib, toshgancha yotibdi.
Unga javob topa olmay,
Boshim misli tosh qotibdi.
Bilib olayapman buni,
Hech kim bosa olmaydi,
Otarimiz o'rnini.

Nozima AZIMJONOVA,
17-lingvistik gimnaziya maktabining
6-«V» sinf o'quvchisi.

ONA

Goh qalamni izlab qolaman,
Madhingizni she'rga solaman.
Ulg'aysamda, hamon bolaman,
Qo'msayapman mehringiz, ona.
Yaxshi bisyor, goh yomon ko'pdir,
O'ng-so'limda ko'z o'yar cho'pdir.
Yiroqdasiz oromim yo'qdir,
Sog'inaman so'zingiz, ona.
Yashayapman men sizdan yiroq,
Ba'zan o'tib ketadi firoq,
Bir yuk yo'qdir undan og'irroq,
Sog'inaman o'zingiz ona.

Sayfuddin ERGASHEV,
Qashqadaryo viloyati,
Qarshi shahri.

Azamat AHMEDOV,
Toshkent Davlat iqtisodiyot universiteti qoshidagi
gimnaziya o'quvchisi.

(Davomi. Boshi o'tgan sonda.)

MEN JO'XORI YEMAYMAN

-Abdumajid qayoqda? - deydilar amakim -buvim o'rgatgan qo'shiqni aytib. Men ularga qo'shib aytib ketaman:

-Qizlar bilan bog'da.
-Bog'da nima qivotti?
-Olma, uzum yevotti,

-Paqirini toldirib,
Olmasini tersin.
Bolalarga bo'lishib,
Uzumidan bersin.

-Yo'q- yo'q, - deyman qo'shiqni birga aytib bo'lib, boshimni sarak- sarak qilib.

-Uzum menga mumkinmas. Oyim urishadilar.

-To'g'ri, xom uzum mumkinmas. Qorningni ogritadi. Sen esa so'ridan pishmagan uzumni uzib olib yeyishni qo'ymaysan.

-Endi yemayman. Yesam Mastura og'zimga shlanka tiqadi. Keyin qornimga suv solib, ichimni yuvadi...

-Bir marta shunday bo'lib ta'ziringni yegansan-da, - deydilar oyim. Biz oyimni gapini eshitmay, yana ashula

aytishni takrorlaymiz.

Paqirini to'ldirib,

Olmasini tersin.

Bolalarga bo'lishib,

Uzumidan bersin.

-Bog'da bolalar yo'q-ku.

Hammasi qizlar-ku,

Abdumajid?

-Bolalar velosipedimni ko'chada minvotti.

-Velosipedingni hamma minaverarkan-da?

Men Abdumajidning velosipediman, menga tegmanglar demas ekan-da, velosipeding?

-Chunki u qizg'anchiq emas.

-Qizg'onchiqlar qanaqa bo'ladi?

-Qizg'onchiqlar ox - umma olib kelmaydi.

-Senga qanaqa ox - umma olib kelay?

-Olmali, anorli, qurtli, semichkali...

-Qurtli ko'p yema, sho'r. Semichkani bolalar chaqaversa appendisit bo'lib qoladi.

-Appendisit nima?

-Appendisitni ko'rsataymi?

-Ha.

Amakim ko'ylaklarini ko'tarib vavasi bor qorinlarini ko'rsatadilar. - Men ko'p jo'xori yeb, pista chaqqanimda shunaqa bo'lib qolganman.

-Men shunaqa bo'lmayman. Men pista chaqmayman. Jo'xori yemayman...

YOZILMAGAN KITOB

Umida ABDUAZIMOVA.

-Lug'at nima?

-So'zlar turadigan sandiq. O'sha sandiqda buvijoning basanojkani basanochka, podvalni podbil, deb qulflab qo'rganlar. Faqat o'zlari uni ochadilar. Demak, faqat o'zlari o'z so'zlarini qanday bo'lsa, shundayligicha ishlatadilar.

Buvim oyimni so'zlarini eshitmay, mening oldimga kelib cho'kkaledilar.

-Nega doim ikki xil oyoq kiyimi kiyib olasan, Abdumajid?

-Bunisi Samiranikidaka, bunisi Mahbubanikidaka.

-Bo'lmagan gap. Ular qiz bola. Qiz

bolalarning oyoq kiyimi

boshqacha



bo'ki

- O'g'ill

bolalarniki tez yirtilib qoladi.

Mening ham tufligim eskib qoldi.

Buvimning ko'zlari yana yoshlanadi.

-Xojiakbarimga ham tufli chidamasdi...

Chidamas tuflim biri- biridan

Tikilsa kerak eski teridan.

Bunisi ham tez

Kir bo'lib qoldi,

Eskisi bilan bir bo'lib qoldi.

-Buvi, shu she'rni menga o'rgatib qo'ying.

-Senga gugurt o'ynama, katta ko'chaga yugurib chiqma, - degan she'rlarni o'rgatib qo'yaman.

Faqat o'rganganlaringga o'zing amal qilishing kerak.

-Qanaqa amal? O'zi tufligimni bir amallab kiyib olganiydim, oyim yechib tashladilar-u...

Buvim esa: - Tavba, bu bolangiz buncha gapdon? Shoir bo'ladimi, deyman, - deydilar.

-Buvisi shoir bo'lgandan keyin, albatta shoir bo'ladi-da.

Amakim esa buvamning gaplarini qo'shib qo'yadi:

-Olmaning tagiga olma tushadi, anorning tagiga anor.

-Qani anor, anor yeyma-a-n.

-Anor ham jo'xoriga o'xshagan-ku. Sen esa jo'xori yemayman deganding.

-Men anorning suvini siqib ichaman.

-Bor, podbildan anor olib chiq. Xoji buvingnikiga ham anor olib boramiz.

keldilar.

-O'zimiz gaplashyapmiz-da. Abdumajid bilan o'z gapimiz bor, - deb yuzlarimdan silab, yana velosipedimga o'tkazib qo'yidilar Mutal amaki.

Buvim esa o'rtog'im qachon keladi, deb yana ular bilan gaplashib qoldilar.

-Endi kelmaydi. Qiznikida turarmish.


-Nargiza yangi uyga o'rganib olguncha o'sha yerda turganlari ham yaxshi. Yolg'iz o'zi kichkina Maftuna bilan qiyinaladi-da.

-Qiynalsin. O'zi so'zga kirmadi. Eri bilan ajrashmaganida so'qqa bosh bo'lib etaj uylarda yurmasdi.

Buvim esa, bu kunlar ham o'tib ketar, deganicha orqamdan ergashadilar. Men ularga qarayman deb, juda ko'p uylardan o'tib ketganimni bilib qoldim. Abrorga to'xtat velosipedni deb oyog'imni tormozga qo'ydim. Abror qo'yib yubor, deb qattiq itarsa ham, veligim joyidan jilmadi. Unga Nazmiddin, Abdunabi ham qo'shib itarib ko'rishdi. Baribir yurmadi. Buvim nima bo'ldi, nega nabiramni boshida yig'ilib oldinglar, deb yetib kelganlarida uzoqda qolib ketgan uyimizni sog'inib ketdim va yig'lab yubordim.

-Buvi, uyimiz ketib qolyapti-i-i...

(Davomi bor.)

UYIMIZ KETIB**QOLYAPTI**

Buvim anorlarni xaltaga solib, velosipedimning aravachasiga qo'yidilar. Biz Xoji buvimnikiga keta boshladik. Ko'chadagi o'rtoqlarim yugurib kelib, velosipedni itarishdi. Menga mazza. Oyog'imni ko'tarib olib, uchib ketaveraman.

-Abror, to'xta, - dedim buvim orqada qolib ketayotganlarini ko'rib. Abror esa meni orqaga uchirib borib, buvimning oldiga yetkazib qo'ydi. Buvim Nazmiddinning oyisi bilan gaplashib qolgan edilar, bolalar meni yana ulardan oldinga o'tkazib ketishdi. Xoji buvimning uyiga shu to'ppa-to'g'ri yo'ldan boriladi. Keyin bitta ko'chaga kirilsa, biznikidaqa tomi bor ko'cha chiqadi. O'sha uyda Shavkat tog'am,

Gulmira kennoyim, Gulchehra, Gulnora, Bekzod turishadi. Oyim ularni aka, opa deb aytgin, dadangga o'xshab chollarni ham oti bilan ataydigan bo'lib qolasan, deydilar. Dadam esa: - Sobitni aytayapsizmi? Oldilarida Sobit aka deyman-u, - deydilar. Faqat ularni emas, Mutal akani ham oti bilan aytib gapirasiz, desalar, Mutal o'rischa o'qigan, xafa bo'lmaydi, deb kuldiradilar.

Ana, Mutal aka ham chiqib turgan ekanlar, Bizning yo'limizni to'sdilar va meni darrov ko'tarib oldilar. Keyin tufligingni yech, ichiga qum kirib qolibdi-ku, qani qo'llaringni ko'rsat, nega kir, tuproq o'ynadingmi, deb ro'molchalari bilan ishqlab artib qo'yidilar.

-Maftuna qani?

-Maftuna domga ko'chib ketgan.

-O'yinchoq qani?

-O'yinchoqlarini ham olib ketgan.

-Yumshoq quyon qani?

-Yumshoq quyon yomg'irda ho'l bo'lib qolibdi.

-Quritib qo'ying.

-Xo'p, hali kelgin, senga beraman.

—Nimalarni gapiryapti bu katta bola?, - deb buvim yetib

Yurtimizning erkatoylari! Kelajagini o'ylab, o'z ilmini ziyoda qilay deb yurgan mehridaryo farzandlarim! Yana sizlar bilan hamsuhbat bo'lgim keldi. Chunki sizlarni sog'indim.

Bugungi kunda sizlar uchun umrining oxirgi daqiqalarigacha nabiralirim deb yashab o'tgan Safar Barnoyev nomini tilga oldim. Safar Barnoyev garchi bolalar shoiri bo'lsa-da, o'zi piri ustoz darajasiga yetgan. Ular hamisha sizlar bilan sho'xliklar-u shodliklaringizdan quvonib yonma-yon yashardilar. O'z hayotida bo'lib o'tgan ajib voqealardan so'zlab, bolalik - beg'uborlik haqida qalam tebratardilar. Qo'yida sevimli yozuvchigizning sizlarga bag'ishlab yozgan hikoyasini o'qir ekansiz, so'lim tabiatga, qushlarga mehringiz yanada jo'shib ketadi. Bunga ishonchim komil!

Malika BARNOYEVA.

(Hikoya)

Qishlog'imizning nomi qiziq. Laylakxona. Laylakxonalikman, deb aytasangiz, boshqa qishloqdagilar kulib qo'yadi. Oldinlari bunga e'tibor bermasdim. Nima, Laylakxona bo'lsa, Laylakxona-da. Boshqa qishloqlarning nomi ham bundan chiroyli emas. Soyning naryog'idagi qishloq - Go'jaxo'r. Katta yo'l bo'yidagisi - Responiob. Eh-he, nima ko'p, nom ko'p.

Ko'p bo'lgani bilan bizning qishloq hammaning tilida. Laylakxonalikman deb og'iz juftlashing bilan qiqir-qiqir kulgu boshlanadi. Ayniqsa, to'y-ma'rakalarda. Qishlog'imiz odamlari ko'rinishi bilan to'yda xizmat qilib yurganlar baravar chug'urlashib qoladi.

- Yo'l beringlar, qatiqchilar keldi.

- Hay, qatigdand tort.

Kattalar-ku, so'zini bermaydi. Ammo men tengi bolalarga qiyin. Ko'zimizni ochirishmaydi. Borishimiz bilan darrov dasturxon yozib, oldimizga kosa to'la qatiq qo'yishadi. Keyin mazax qilishadi.

- Olsinlar, qatiq sovib qolmasin.

Hatto ba'zida to'yga borsak, biz laylakxonaliklar bolalarga alohida joy ajratib berib, toza kalaka qilishadi. To'yga bormay desam, buvam hol-jonimga qo'ymaydilar.

- Boraqol, Avaz, to'y bolalarniki. O'ynab kelasan.

Ha, o'ynab kelaman. Qo'shni qishloq bolalari jim turarmidi... Qumg'onday qaynashadi.

- Buva, - dedim bir kuni xafa bo'lib, - qishlog'imizning otini o'zgartirsa bo'lmaydimi?

Buvam kulib yubordilar.

- Obbo seni-ey. Tushundim gappinga. Bu qadimdan qolgan nom. Hazillashadi-da.

- Kerak emas, - dedim to'mtayib.

Buvam anchagacha jim turdilar. Men ham indamadim.

Astoydil xafa bo'lganimni ko'rib buvam tushuntira boshladilar:

- Bolam, qadimgi odamlar qiziq bo'lgan. Mana, qishlog'imizning otini olaylik. Bir zamonlar mingchinor deb atalgan. Oq laylaklar qishlog'imiz chinorlariga in qo'yib ketgach, atrof qishloq odamlari Mingchinorni unutib, Laylakxona deb nom berishgan. O'shandan beri Laylakxona.

- Laylakka qatiq ichirganingiz rostmi, buva?

- Kim aytdi senga?

- Hamma.

Buvam bo'yinlarini qashib, jilmaydilar.

- Bu ham odamlarning hazili. Hech vaqt laylak qatiq ichganmi? Bolaligimda menga ham hazil qilishardi.

- Menga hazil qilishmasin.

To'g'ri-da, nenga menga hazil qilishadi. Nima ekan, Laylakni ilohiy qush deb bilib, qishlog'imizdagilar kosada qatiq tutmaganmish. Buning ustiga umrimda qatiq ichmaganman. O'chakishganday, qayerga bormay, darhol choy o'miga ham qatiq uzatishadi. Ana shundan alam qiladi.

Qishlog'imizning oti Laylakxona bo'lgani bilan buvam aytmoqchi, laylak in qo'ygan chinorlar allaqachon qurib, kesilib ketdi. Yakka-yu yagona oq laylak hovlimizdagi qari tutga in qo'ygan, xolos. Har bahor ana shu bir juft laylak qishlog'imizga keladi.

Bolalar mazax qilganda so'z bilan yulib olaman-u, ammo laylaklar tutga kelib qo'nishi bilan o'z-o'zidan so'zimni yo'qotib qo'yaman.

Payt poylab yurgan bolalar ariday vag'illab qoladi.

- Qutlug' bo'lsin, laylaging kelibdi?

- Sigirlaring ham tug'gandir.

- Qatiq kerak bo'lsa, tortinmay so'ra. So'z topolmay jo'jaxo'rozday qizarib ketaman. Og'zidan qatiq so'zi chiqqan bolaning yuziga chang solgim keladi.

Buvam bo'lsalar qari tutni sira-sira kesdirmaydilar. Bargchilar kelganda ham, jonivorlarga ozor berasanlar, deb yo'latmaydilar.

O'rtoqlarimning hazilidan qanday qutulishim mumkin. Mana, to'yarga ham bormay qo'ydim. Otiga to'yga boryapman deyman-u, uydin chiqib qishloqni bir-ikki aylanib, darrov uyga qaytaman. Xuddi mening uydagilarni aldagimni sezganday, tut tepasidagi laylaklar bo'yinlarini cho'zib, qaqara-qaqarlab nog'ora chalib qo'yadi.

Hm... deyman mushtimni tugib. Jim tursalaring o'lasanlarmi...

Darsdan qaytib, hovli yuziga to'kilgan tutlarni terayotgandim, eshikdan Obid kirib keldi.

- Ha, qatixxo'r. Sobirnikiga borasanmi?

- Bor-e, - dedim jahlim chiqib.

- Jahling chiqmasin, - dedi Obid

tut tepasidagi laylak iniga ishora qilib, - qatig'ing iviguncha kelamiz. Bugun Sobirning tug'ilgan kuni.

- Sobirning tug'ilgan kunimi? - dedim mushtimni tugib.

- Hoy-hoy, - dedi

Obid orqasiga

tisarilib, -

nega xafa

bo'lyapsan.

Hazilni ham

tushunmay-

sanmi?

- Ket, - dedim unga

bo'ynimni cho'zib. -

Bormayman.

- O'zing bilasan, -

dedi Obid, - borsang...

- Bormayman.

Obid vajohatimdan

cho'chidimi, bo'shashib

iziga qaytdi.

Aslida menga hazil qilmasdi. O'zicha qiziqchilik qilmoqchi bo'ldimi... Ammo menga qattiq botdi. Kelib-kelib lapashang Obid men bilan hazillashadimi. Ko'rsatib qo'yaman unga.

O'ch olishga odam topolmay turganimda, laylaklar iniga kelib qo'ndi. Yoyiq qanotlarini yig'ishtirishga ulgurmasdan qo'llarimni havoda silkitib, ularni hayday boshladim.

- Kish-kish, hoy-hoy...

Laylaklar e'tibor ham bermadi. Chelakni chaldim, miq etishmadi. Qizishib ketib, iniga qarab qo'limga ilingan narsani ota boshladim. Uyasiga bag'rini berib yotgan laylaklarga otgan kesaklarim tegdimi, tegmadimi, bilmadim, har holda ketma-ket uchib ketishdi. Uchib ketishgach ham o'zimni bosolmadim. Tutning tepasiga chiqib olib, laylak inini buzib tashladim.

Qani endi kim men bilan hazillashadi. Ishni qoyil qilgan odamdek tutdan tushdim.

Oradan qancha vaqt o'tdi, bilmayman. Uchib ketgan laylaklar qaytib kelmadi. Keksa tutning qurib qolgan uzun shoxiga qo'nib olishib, qanotlarini silkitishdi. Yana qaytib uchib, daraxt tepasida doira yasab aylanishdi. Sherigi qo'nishga hozirlik ikkinchisi uning yo'lini kesib o'tib, uchib ketdi. Qo'nmoqchi bo'lgani unga yetib olishga shoshildi.

Hamisha uyg'og hotira



Bo'shashib ular ketgan tomonga qaradim. Laylaklar tobora uzoqlashib, bora-bora ko'rinmay qoldi. Laylaklar izidan tikilib qolib, buvamning kirib kelganini sezmayman.

- Ha, - dedilar buvam, - nima qilib turibsan?

- Lay-laylar, - tilim aylanmay qolib, birdan ho'ngrab yig'lab yubordim.

Buvam biror narsadan qo'rqibdimi deb, darrov menga suv ichirdilar.

- Nima bo'ldi?

Buvamning so'roqlariga javob bermadim. Chunki daraxt ostida laylak inini titilib yotardi.

- Shamol uchirdimi? - so'radilar buvam hovliqib, - qattiq shamol bo'lmadi-ku. E, jonivorlar-ey. Xayriyat tuxum qo'ymagan ekan.

Lekin ozor chekkan qush qaytib kelarmikan...

Oyog'imni sudrab uyga kirdim. Buvam titilib ketgan laylak uyasi oldida soqollarini tutamlab qotib qoldilar.

Ertasiga, indiniga, undan keyin ham oq laylaklar tutimizga qaytib qo'nmasdi.

Qishlog'imizdagi so'nggi bor bir juft laylakni men olislarga qaytib kelmas qilib uchirib yubordim.

Buvam bo'lsalar bu ishni men qilganimni bilsalar ham o'shanda miq etmadilar.

Yillar o'tdi. Baribir qishlog'imiz nomi o'zgargani yo'q...

Har gal qishlog'imiz chekkasidagi oq laylaklar uchib o'tganida katta-kichik uning izidan termulib qoladi...

Safar BARNOYEV.



MUHAMMAD YUSUF TABASSUMI

Borliq yashillikka burkanib, ajib tarovat kasb etgan ayni kunlarda, xayolot olamiga g'arq bo'lib, maktabdan uyga qaytardim. Beixtiyor ustozim so'zlab bergan g'ayritabiiy bir tushlari yodimga tushib ketdi. Tushlarida mahrum shoirimiz Muhammad Yusuf bilan poyonini ko'z ilg'amas maydonda sayr qilib yurishganmishlar. Muhammad aka xuddi farishtalardik oppoq kiyimda bo'lib, yuzlaridan yog'ilib turgan nur kattagina maydonni yoritib turganmish. Ular uzoq suhbatlashishibdi. Afsuski ustozim suhbatning mavzusini eslab qololmabdilar. Lekin Muhammad akaning nimadandir bag'oyat mamnun ekanliklari yuz-ko'zlaridan sezilib turganmish. Suhbat so'nggida shunday mas'um tabassum qilibdilar, bundan ustozimning vujudiga ajib bir iliqlik tarqalganday bo'libdi.

-Sevimli shoirimiz tabassumining boisi nimaligini bilolmayapman-da, -dedilar biroz xayolga cho'mib...

Men ham bu haqda ko'p o'yladim. Menimcha, Muhammad Yusufning tabassumi uning hali ham oramizda biz ijodkor yoshlarni qo'llab yurganlaridan dalolatdir. Balki, bilimli va zukko o'g'il-qizlarni kamol toptirayotganlari uchun ustozimiz Zuhra opadan minnatdorlik alomatidir. Yana kim biladi deysiz?

Mohina SALIMOVA,

Toshkent shahar, Sobir Rahimov tumanidagi 249 - maktabning 7-«A» sinf o'quvchisi.



BARCHAGA BIRDEK YOQADI

Men Qashqadaryo viloyati, Chiroqchi tumanidagi 4-o'rta maktabning 3-«B» sinfidagi o'qiyman. Bo'sh vaqtlarimda meni tumanidagi «Bolalar Ijodiyot uyi»dagi rassomchilik to'garigidan topasiz. Biz bu yerda ustozimiz Matluba opadan tasviriy san'atning nozik sirlarini o'rganamiz. Bundan tashqari, shaxmat o'ynab turaman. Gazetaning 5-fevraldagi sonida «Mening bo'sh vaqtim» rukni ostida berilgan



tengdoshim Kamoliddinning «Vaqtimni zoye ketkazmayman» maqolasi juda yoqdi. Men ham ulardan o'rnak olib, tahririyatga o'zim chizgan rasmlarni yuborayapman. Fursatdan foydalanib, shuni aytmoqchiman, «Tong yulduzi» gazetasi barcha qashqadaryolik tengdoshlarimga ham yoqadi.

Jahongir **TURSUNOV**.

«PSI»GA BORYAPMAN

Mening oldin bo'sh vaqtim juda ko'p bo'lardi. Lekin endi bo'sh vaqtim yo'q. Bunga sabab, men PSIGA borayapman. Bu nima ekan, deb qiziqiyotgandirsiz? Bu tashkilot SPID kasalligi bo'yicha ish olib boradi. Bu yerda bolalar turli to'garaklarga qatnashadilar. Masalan, men kompyuter kursi, ingliz, rus, koreys tillari hamda tikuvchilik kurslariga qatnashayapman. Bundan tashqari, ispan tili, ruhshunoslik, u-shu, karate, bodi-bilding, biser, sataroshlik, qizlar shahri va boshqa to'garaklar ham mavjud. Yozgi ta'til kunlarida bu to'garaklarga ham qatnab, o'zlashtirib olmoqchiman. Hozir imtihonlarga tayyorgarlik ko'rayapman. Agar siz ham to'garaklarning biriga qatnashni xohlasangiz, bo'sh vaqtlaringizni bu yerda o'tkazishingiz mumkin. Fursatdan foydalanib, bizga shunday sharoitlar yaratib berganlarga minnatdorchilik bildirmoqchiman.

Shahnoza **ABDIRIMOVA**,
TDIU qoshidagi iqtisodiyot gimnaziyasining 6-sinf o'quvchisi.

TARIXIY OBIDALARNI ASRAYLIK

Men bo'sh vaqtlarimda rasm chizish bilan mashg'ul bo'laman. Chizgan rasmlarim turli mavzuda bo'lsa-da, tarixiy obidalarni ko'proq chizishga qiziqaman. Chunki bobolarimizdan bizga abadiy bo'lib qolgan bu tarixiy obidalarni asrab-avaylash biz yosh avlodning burchi hisoblanadi. Obidalarimizning qadimiyligini, betakror naqshlarini tomosha qilish uchun necha dengiz va okeanlar oshib sayyohlar kelishadi. Mana shunday boy merosni qadriga yetishimiz kerak. Sizlarga yuborayotgan rasmlarimni «Tong yulduzi»ning sahifalarida ko'rsam, quvonchim cheksiz bo'lardi...



Shaxboz **QO'SHBOQOV**,
Toshkent viloyati,
Bekobod tumanidagi
H.Umarov nomli
18-o'rta
maktabning
7-«B» sinf
o'quvchisi.

ODOBLIQIZ

Dilafro'z juda aqlli qiz. Bo'sh vaqtlarida she'rlar qoralab turadi. Bir kuni u sevimli gazetasi «Tong yulduzi»ga she'rlarini yubormoqchi bo'ldi. Maktubni yozib bo'lgach, dugonalari bilan pochta qutisiga tashlamoqchi bo'lib ketayotgandi, ular turli bahonalar qidira boshlashdi. Nachora, Dilafro'z bir o'zi pochtaga borishga majbur bo'ldi. Yo'lda ketayotib, katta sumka ko'targan bir keksa kishiga ro'baro' bo'ldi. Dilafro'z o'ylab ham o'tirmay, haligi kishiga yordamga shoshildi. Buni chetda kuzatib turgan dugonalari «Dilafro'zning holiga maymunlar yig'laydi», deb kulib turishardi. U keksa kishini uyigacha kuzatib qo'ydi. Ular esa:

– Baraka top qizim, ota-onangga ming rahmat, – dedi. Buni ko'rib turgan dugonalari Dilafro'zga hasad bilan qarab qo'yishdi.

Gulmira **HAZRATOVA**, Jizzax viloyati, Jizzax tumanidagi 57-ixtisoslashgan maktab-internatining 6-sinf o'quvchisi.

SHE'RIVATGA HAVASMANDIMAN

Men Jizzax viloyatining Yangiobod tumanidagi Puchug'oy qishlog'ida yashayman. Muhammad Yusuf, To'ra Sulaymon, Halima Xudoyberdiyeva, Jamila Yusupova kabi taniqli shoir va shoirlarning ijodlariga juda qiziqaman. Yozgan she'rlarim «Jizzax haqiqati» hamda «Yangiobod chechaklari» gazetalarida chop etilib turadi. Sevimli shoirimiz Muhammad Yusufga bag'ishlab yozgan she'rimni tengdoshlarim hukmiga havola qilaman. Ularning ruhlari doimo biz shogirdlaridan shod bo'lsin.

MUHAMMAD YUSUF


Andijondan esar edi mayin shabboda,
Qablarni g'am tirnadi yuraklar ado.
Marhamatdan keldi bu mash'um sado:
Olamdan o'tibdi Muhammad Yusuf.
O'zbeginning mard, metin bolasi,
She'riyat bog'ining so'ldi lolasi.
Marhamatda qoldi ona nolasi,
Olamdan o'tibdi Muhammad Yusuf.
U olamdan o'tdi, she'rlari hayot,
Muxlislari ko'nglida qoldi mangu ot.
Eslab yurar endi uni umrbod,
Olamdan o'tibdi Muhammad Yusuf.

Ilhomjon **OTANAZAROV**,
Jizzax viloyati, Yangiobod tumanidagi 2-maktabning
8-«A» sinf o'quvchisi.



QUVNOQ SICHQONLAR

Qadim emas, hozirgi zamonda ikki nafar quvnoq sichqonlar bor ekan. Birining nomi Nokki, biriniki esa Rokki ekan. Bu ikki sichqoncha doimo o'zlari uchun sarguzashtlar qidirib yurisharkan. Bir kuni Nokkining qulog'iga pashsha kirib ketibdi. Nokki rosa



dod-voy qilibdi. Buni eshitgan Rokki yordamga shoshilibdi. Ular birgalashib Nokkining qulog'idagi pashshani chiqarib olishga kirishishibdi. Pashsha ham g'alati ekan-da, ular quloqqa barmoq tiqqani sayin u ichkariga kirib ketaveribdi. Shu payt Rokkining xayoliga bir narsa kelib qolibdi. U Nokkining burniga parni qo'yib, rosa jig'iga tegibdi. Nokki bor ovozi bilan aksirib yubormoqchi bo'lganida, Rokki uning burnini yopibdi va Nokki aksirgan vaqtda pashsha uning quloqlaridan chiqib ketibdi. Shu tariqa bu ikki do'st dilozor pashshadan qutulishibdi.

Nigora **DEHQONOVA**,
Farg'ona viloyati, Oltiariq tumanidagi 20-o'rta
maktabning 4-«B» sinf o'quvchisi.

TONG
yulduzi

O'zbekiston Respublikasi
bolalari va
o'smirlarining gazetasi

BOSH MUHARRIR:

Umida

ABDUAZIMOVA

TAHRIR HAY'ATI:

Turobjon **JO'RAYEV**,

Dilbar **OLIMJONOVA**,

Botir **UBAYDULLAYEV**,

Jabbor **RAZZOQOV**,

Dilmurod **RAHMATILLAYEV**,

Dilshoda **DADAJONOVA**,

Feruza **JALILOVA**

(bosh muharrir o'rinbosari),

Sobirjon **SHARIPOV**,

Nurxon **NAFASOV**,

Ergashvoy **SARIQOV**.

Gazeta O'zbekiston
Matbuot va axborot
agentligida

022-raqam bilan

2003-yil 11-dekabrda
ro'yxatdan o'tgan.

Noshir

«O'zbekiston»

nashriyot-matbaa

ijodiy uyi.

Gazeta

«O'zbekiston»

nashriyot-matbaa

ijodiy uyi

kompyuter bo'limida terib

sahifalandi va

chop etildi.

Gazeta haftaning dushanba

kuni chiqadi.

Hajmi A-3,

2 bosma taboq.

Adadi - 48849

Buyurtma N: J 2333

Dizayner va sahifalovchi:

Fazliddin

SHAYADGAROV.

Navbatchi:

Jamila

ERDONOVA.

Rassom:

Nodira **MIRZAYEVA**.

Manzilibiz:

700129,

Toshkent shahri,

Navoiy ko'chasi, 30-uy.

Obuna indeksi: 198.

e-mail:

tong_yulduzi@rambler.ru

Tel: 144-38-10

144-63-08

Tel./ faks:

(99871) 144-24-45